



**BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQ
MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI
(O'QUV PODCASTLAR MISOLIDA)**

Olimova Mohida Rustamjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: olimovamohida74@gmail.com +998950205622

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning nutq malakalarini takomillashtirishda podcastlarning o'rni va ahamiyati hamda podcastlardan foydalanishning afzalliklari, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish usullari va bu orqali o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: nutq malakalari rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarini oshirish, podcastlar orqali nutq malakalarini rivojlantirish, og'zaki nutq rivojlantirish, nutq faoliyati turlarini o'rgatish, yozma nutq shakllari, zamonaviy ta'lim texnologiyalar.

**THE METHODOLOGY OF IMPROVING ORAL SPEECH SKILLS OF
FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS (THROUGH EDUCATIONAL
PODCASTS)**

Olimova Mohida Rustamjon qizi

PhD Candidate at Namangan State University

E-mail: olimovamohida74@gmail.com

Phone: +998950205622

Annotation: This article examines the role and significance of podcasts in improving students' speech skills, the advantages of using podcasts, methods of integrating them into the educational process, and ways to enhance teachers' communicative competencies through their use.

Keywords: development of speech skills, improvement of communicative competencies, developing speech skills through podcasts, oral speech development, teaching types of speech activity, forms of written speech, modern educational technologies.

**МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ
БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА (НА
ПРИМЕРЕ УЧЕБНЫХ ПОДКАСТОВ)**

Олимова Мохида Рустамжон кизи

Аспирант Намаганского государственного университета

E-mail: olimovamohida74@gmail.com

Телефон: +998950205622



Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение подкастов в совершенствовании речевых навыков студентов, преимущества их использования, методы интеграции в образовательный процесс, а также способы повышения коммуникативной компетентности преподавателей с их помощью.

Ключевые слова: развитие речевых навыков, повышение коммуникативных компетенций, развитие речевых навыков через подкасты, развитие устной речи, обучение видам речевой деятельности, формы письменной речи, современные образовательные технологии.

KIRISH

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lif sohasida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o'qitishda talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chet tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri talabalarni muloqotga tayyorlash, ularning og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish va erkin fikr bildira olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu boisdan, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va multimedya vositalari o'quv jarayoniga faol jalg etilmoqda. An'anaviy o'qitish usullarida talabalar ko'proq grammatik va yozma mashqlarga e'tibor qaratgan bo'lsa, zamonaviy ta'lif muhitida og'zaki muloqot, tinglab tushunish va bevosita kommunikatsiya jarayoni ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, podkastlar chet tili o'qitishda samarali multimedya vositasi sifatida tobora keng qo'llanilmoqda. Chunki podkastlar tabiiy nutq muhitini yaratish, til o'rganishga qiziqishni oshirish va real kommunikatsion holatlarga moslashishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur maqolada podkastlarning talabalarning og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati, ularning ta'lif jarayoniga integratsiya qilinishi hamda foydalanish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda podkastlardan foydalanish imkoniyatlari ilmiy-nazariy asosda ko'rib chiqiladi. Podkastlarning lingvodidaktik imkoniyatlari va ularning chet tili ta'limiga ta'siri, talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda podkastlardan foydalanish metodikasi, podkastlar yordamida interfaol ta'lif muhitini yaratish va talabalarni real kommunikatsiyaga jalg qilish usullari hamda



podkastlarning auditoriya va mustaqil ta'lif jarayonidagi samaradorligi. Bundan tashqari, xorijiy tajribalar tahlil qilinib, podkastlar orqali chet tili o'rgatishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari chet tili o'qitish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda foydali bo'lishi kutilmoqda. Shu bilan birga, maqolada podkastlarning didaktik imkoniyatlarini yanada samarali ishlatish bo'yicha muayyan tavsiyalar beriladi. Ushbu ish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak chet tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarinini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, til o'rganish jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu bo'yicha boshqa adabiyotlarda ham olimlar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Ta'lif va pedagogika sohalarida olib borilgan ilmiy ishlar podcastlar orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullarini, raqamli ta'lif texnologiyalarini integratsiya qilish va interaktiv metodlarni qo'llashning samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, qo'llanmalarda podcastlarning o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalariga ta'siri, ularning nutqiy va yozma faoliyatini yaxshilashdagi o'rni va raqamli savodxonlikni oshirish borasida turli tadqiqotlar mavjud. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar va tadqiqotlar elektron ta'lif resurslari, interaktiv platformalar va yangi texnologik yondashuvlar yordamida ta'lif jarayonini yanada samarali, qulay va optimallashtirishga qaratilgan bo'lib, kelgusida ushbu yo'nalishda yangi metodik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi kutilmoqda. [2]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda "kompetensiya" tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida ham kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirishga yo'naltirilgan. Tadqiqotimiz bo'lajak chet tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini takomillashtirish metodikasini o'quv podkastlardan foydalanish misolida o'rganishga qaratilgan.



Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish bo'yicha bir qator olimlar tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotchilardan T.Ziyodova va M.Nurullayevalar ingliz tilidagi og'zaki nutqni rivojlantirishning asosiy xususiyatlari haqida faoliyat olin borishgan bo'lsa, Azizaxon Bazarbayeva esa tizimga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni o'rganib samarali mashqlar tizimini shakllantirishning metodologik asoslarini tahlil qilganlar. Ushbu olimlarning tadqiqotlari bo'lajak chet tili o'qituvchilarining og'zaki nutq malakalarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonida samarali metodlarni q'llashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot talabalarining nutq malakalarini shakllantirishda podcastlardan foydalanishning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot: nazariy tahlil, tajriba va amaliy ma'lumotlarga, so'rovnomaga va intervylular hamda ma'lumotlarni tahlil qilish kabi metodologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. [3]

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchi nutqini o'ziga xosligi va uni o'quvchilarga yo'naltirilganligidadir. Pedagog o'z nutqini tarbiyalanuvchilari qanday aks tasir ko'rsatishini oldindan ko'ra oladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar og'zaki nutqini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib, bu borada innovatsion metodlar, jumladan, podkastlardan foydalanish samaradorligi alohida e'tiborga egadir. Tadqiqot davomida talabalar nutq malakalarini takomillashtirishda podkastlarning o'rni va ta'siri chuqr o'rganildi.

Chet til o'qitish mazmunining yana bir tarkibiy qismi - "til materiali" fanda birmuncha tadqiq etilgan sohalardan biridir. Til materiali leksika, grammatika, talaffuz atalmish kichik tarkibiy qismlardan iboratdir. Ushbu metodik tahlilda ular sun'iy ajratiladi, xolos, nutqda esa yaxlit o'rganish ob'yekti sifatida qo'llaniladi.

Hozirgi kunda "og'zaki nutq" mavzulari "Speaking", Asosiy o'rganilayotgan chet tili, CEFR" fanlari bo'yicha o'qilib kelinmoqda.

Namangan davlat universitetida talabalar o'rtasida podcastlardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi



Tinglab tushunish	85 %	Podcastlar, videolar va amaliy mashqlar
O'qib tushunish	67%	Topshiriq va mashq orqali
Gapirish tushunish	80%	Savol,topshiriq,mashqlar orqali
Yozib tushunish	57%	Esseylar va mashqlar orqali

Talabalar og'zaki nutqini rivojlantirishda podcastlarning o'rni juda keng. Yuqoridagi jadval asosida ko'rildik, bo'lajak chet tili o'qituvchilari nutq malakalarini oshirish uchun tinglab tushunish orqali 85%, o'qib tushunish orqali 67%, gapirib tushunish orqali 80%, yozib tushunish orqali esa 57% ni tashkil etdi. [4]

XULOSA

Chet tili o'qitish jarayonida talabalar og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, podkastlardan foydalanish talabalar nutqiy kompetensiyasini oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki podkastlar tabiiy til muhitini yaratib, tinglab tushunish, talaffuz va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Eksperiment va so'rov natijalariga ko'ra, podkastlar orqali ta'lim olgan talabalar yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirgan, nutqiy faolligi va eshitish qobiliyati an'anaviy usulda ta'lim olganlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Shuningdek, talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari kengayib, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyasi oshgani kuzatildi, podkastlarni chet tili ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zarur. Masalan: dars jarayonida podkastlardan faol foydalanish – talabalarning tinglab tushunish va og'zaki nutq malakalarini rivojlantiradi, talabalarga mos podkastlarni tavsiya qilish – ularning qiziqishlari va til bilish darajasiga mos materiallar bilan ta'minlash kerak. Podkastlar asosida interfaol dars mashg'ulotlari o'tkazish – tinglangan mavzular bo'yicha bahslar, rolli o'yinlar va muhokamalar tashkil etish. Ulardan mustaqil ta'lim jarayonida foydalanishni rag'batlantirish – talabalarni muntazam tinglashga va o'z fikrlarini erkin ifodalashga undash. Umuman olganda, podkastlar chet tili o'qitish jarayonini



innovatsion yondashuvlar bilan boyitish, talabalar nutqiy faolligini oshirish va ularni real kommunikativ muhitga tayyorlash imkonini beradi. Shu sababli, kelajakda pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlar asosida podkastlardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish lozim. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
3. Nation, I. S. P. (2009). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. Routledge.
4. Rost, M. (2011). Teaching and Researching Listening. Pearson Education.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli "Harakatlar strategiyasi" farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi. (2020). Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. Toshkent.
7. CEFR (Common European Framework of Reference for Languages). (2020). Companion Volume with New Descriptors. Council of Europe.
8. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.